

	Z.Komilova– O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti Ikkinchi chet tili” kafedrasida stajyor-o‘qituvchi.
9.	Taqrizchilar: G.Xalliyeva – O‘zDJTU, universiteti “G‘arb adabiyoti” kafedrasida mudiri f.f.n., dotsent. A.Tilavov – TDO‘TAU, “Folklorshunoslik va dialektologiya” kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Ingiliz 3 Filologiyasi
fakultet dekani


I.Xaydarov

Ikkinchi chet tillari
kafedrasida mudiri


K.Moydinova

Universitet axborot resurs
markazi direktori


S.Kayumova



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Rektor:  J. Tuxtasinov

2025-yil 4--

Ro‘yhatga olindi: **BD60230100-O‘QT2406**

2025-yil 4--

**O‘QIB TUSHUNISHNI TAKOMILLASHTIRISH
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200 000	– San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230 000	– Tillar
Ta‘lim yo‘nalishi:	60230100	– Filologiya va tillarni o‘qitish (Turk tili)

Toshkent-2025

Fan/modul kodi O'QT2406		O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili Rus O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	O'qib tushunishni takomillashtirish	48	72	120	
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi - talabalarning so'zlarni o'rganish va muloqotda qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish, yangi so'zlarni o'rganish va yodda saqlashning mos usullaridan foydalanishga, uslublarni bir-biridan farqlashga yo'naltirilgan qator idiomatik ifodalar va og'zaki so'zlashuvdagi so'zlar, jargon va idiomalarni qo'llash, ibora va ifodalarni muloqotning turli vaziyatlarida ishlata olish (muloqotga kirishish uchun so'z navbati olish, vaqtdan yutish maqsadida muqaddima va xulosa iboralarini ishlatish kabi), tinglovchini chalg'itmagan holda so'zlarga ekvivalent bo'lgan terminlarni qo'llash, leksik bog'liqlik - sinonim, antonim, omonimlarni o'rinli qo'llay olishga o'rgatishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - turk tili leksik birliklari, ma'lum mavzuga doir so'zlar yig'indisi (atrof-muhit, inson xarakteri va b.), o'zgarma iboralar, ma'lum bir so'zning dialektlarda turlicha qo'llanilishi, frazeologik birliklar, so'z yasashining o'ziga xos xususiyatlari, qisqartma so'zlar, so'z birikmalari, professional va akademik terminologiya, kontekstga mos bo'lgan hamda korpus-analiz bazasidagi so'zlarni to'g'ri ishlatish, lug'at bilan ishlay olish (bir va ikki tilli, kitob/elektron/onlayn lug'atlar) ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi</p> <p>“O'qib tushunishni takomillashtirish” fanini tuzishda Turkiya oliy ta'lim muassasalari tajribasi ham alohida o'rin tutadi. Xususan, Marmara Universiteti, Orta Doğu Teknik Universiteti (ODTÜ), Hacettepe Universiteti, İstanbul Universiteti kabi yetakchi universitetlarda Türkçe Yazılı Anlatım / Akademik Yazı / İleri Yazma Becerileri nomlari ostida o'qitiladigan fanlar tajribasi o'rganildi.</p> <p>https://meobs.marmara.edu.tr/Ders/turkce-i-yazili-anlatim/tto121-1042-3085?utm_source=chatgpt.com</p>				

1.	<p>1. Karay H. Türkçenin Yabancı Dil Olarak Öğretimi. El kitabı- Ankara, 2020.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016.</p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. - 48 b.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. - 488 b.</p> <p>7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021.</p> <p>8. Razi S. Okuma becerisi öğretimi ve değerlendirilmesi. El kitabı-İstanbul, 2007.</p> <p>9. Yrd. Doç. Dr. İbrahim Gültekin ve sr., Yedi İklim Türkçe B1/B2 Ders Kitabı. Türkiye Diyanet Vakıf yayınevi 2015.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>1. https://www.salimrazi.com/userfiles/Razi.pdf?utm_source=chatgpt.com</p> <p>2. https://www.kitapyurdu.com/kitap/okuma-becerisi-ogretimi-ve-degerlendirilmesi/106674.html?srltid=AfmBOopqy1g4U-JfQDALmvs62V6tRLGGAw3tuQdiHrDchj1mSh9tKOG&utm_source=chatgpt.com</p> <p>3. https://www.bilimdileksi.com.tr/akici-okuma-becerileri-nasil-gelistirilir/?srltid=AfmBOop4PC9DNKqLUQjFR0I3z76tmElqkdtSztq-Xwe8CysmJ21XQ3g&utm_source=chatgpt.com</p>
7.	<p>O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil <u>4</u> - <u>iyun</u> dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (<u>10</u>-sonli bayonnoma).</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: H.Boltaboyeva – O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Ikkinchi chet tili” kafedrasida PhD o'qituvchi; N.Abduraximova- O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Ikkinchi chet tili” kafedrasida o'qituvchi;</p>

	<p>tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risidagi Nizom” talablari asosida belgilanadi.</p> <p>Talabalarining bilimini baholash mezonlari:</p> <p>5 (a’lo) baho – talaba amaliy mashg’ulotlari topshirig’ini mustaqil yondashgan holatda to’g’ri bajaradi, amaliy muammo bo’yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to’g’ri tahlil etish asosida ma’lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to’g’ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to’g’ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo’ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko’nikmasiga ega bo’ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.</p> <p>4 (yaxshi) baho – talaba amaliy mashg’ulotlari topshirig’ini mustaqil yondashgan holatda to’g’ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo’l qo’yadi, amaliy muammo bo’yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma’lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba’zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo’l qo’yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to’g’ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muyyan amaliy bilimga ega bo’ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko’nikmasiga ega bo’ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.</p> <p>3 (qoniqarli) baho – talaba amaliy mashg’ulotlari topshirig’ini mustaqil yondashgan holatda to’g’ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo’l qo’yadi, amaliy muammo bo’yicha mustaqil mushohada yuritishda ma’lum ilmiy-nazariy xatolarga yo’l qo’yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to’liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo’lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko’nikmasi to’liq shakllanmagan bo’ladi.</p> <p>2 (qoniqarsiz) baho – talaba modul bo’yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo’pol xatolarga yo’l qo’yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>4. Prof.Dr. Fatma BÖLÜKBAŞ., Doç.Dr. Mehmet Yalçın Yılmaz. Yeni İstanbul Uluslararası Öğrenciler İçin TürkçeB1/B2 Ders Kitabı. Kültür Sanat Yayınevi 2021.</p> <p style="text-align: center;">Qo’shimcha adabiyotlar</p>

<p style="text-align: center;">II. Asosiy qism (amaliy mashg’ulotlar)</p> <p>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-semestr</p> <p>Konu 1. Okuma becerisini geliştirme bilimine giriş (2 saat)</p> <p>Konu 2. Okuma becerisini geliştirme biliminin amaç ve vezifeleri. (2 saat)</p> <p>Konu 3. Hedef Dilde Okuma Becerisine İlişkin Temel İlkeler ve Kazanımlar. (2 saat)</p> <p>Konu 4. Okuma Amaçları ve Okuma Türleri. (2 saat)</p> <p>Konu 5. Yabancı Dil Öğretiminde Okuma Amaçları (2 saat)</p> <p>Konu 6. Okuma Öğretimi Modelleri. (2 saat)</p> <p>Konu 7. Sesli Okuma (2 saat)</p> <p>Konu 8. Sessiz Okuma. (2 saat)</p> <p>Konu 9. Mass Media. (2 saat)</p> <p>Konu 10. Yoğun Okuma. (2 saat)</p> <p>Konu 11. Yaygın Okuma (2 saat)</p> <p>Konu 12. Metin Kaynaklı Okuma. (2 saat)</p> <p>Konu 13. Zihin Kaynaklı Okuma. (2 saat)</p> <p>Konu 14. Okuma Alt Becerileri ve Okuma Süreçleri. (2 saat)</p> <p>Konu 15. Ana Dil ve İkinci Dil Okuma Süreçlerindeki Benzerlikler (2 saat)</p> <p>Konu 16. Yabancı Dil Öğretiminde Okuma Stratejileri (2 saat)</p> <p>Konu 17. Anlama Stratejileri. (2 saat)</p> <p>Konu 18. Duyuşsal ve Toplumsal Stratejiler. (2 saat)</p> <p>Konu 19. Yorumlama Değerlendirme Stratejiler. (2 saat)</p> <p>Konu 20. Okuma Öncesi Stratejiler. (2 saat)</p> <p>Konu 21. Okuma Sırası Stratejiler. (2 saat)</p> <p>Konu 22. Okuma Sonrası Stratejiler. (2 saat)</p> <p>Konu 23. Bütün Okuma Süreçlerine İlişkin Stratejiler. (2 saat)</p> <p>Konu 24. Diller için Avrupa Ortak Öneriler Çerçevesi'nde Okuma Becerisi. (2 saat)</p> <p style="text-align: center;">III. Amaliy mashg’ulotlar bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar</p> <p>Amaliy mashg’ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o’tilishi, mashg’ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo’llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p style="text-align: center;">IV. Mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo’yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:</p> <p>Talabalarni mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo’yilgan talablar O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-</p>
--

<p>yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo’yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to’g’risida”gi buyrug’i asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>Mustaqil ta’limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - o’tilgan mavzuni chuqur o’rganishlari uchun darslik, o’quv materiallari bilan faol ishlash; - amaliy mashg’ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko’rish, vaqtdan unumli foydalanish; - fan (modul)lar bo’yicha mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi; - mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko’chirmakashlik)ga yo’l qo’ymasligi; - kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o’ziga yuklatilgan vazifalarni o’z vaqtida bajarishi. <p>Mustaqil ta’limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (esse) tayyorlash; - badiiy-ijodiy ishni bajarish; - aniq mavzu bo’yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash; - berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta’rif va xulosalarni berish; - amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlab chiqarish ko’nikmasini shakllantirish; - ilmiy maqola, tezislarni va ma’ruza tayyorlash. <p style="text-align: center;">4-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Matnni tahlil qilish va asosiy fikrni aniqlash (6 soat) 2. Matndagi mavzu va g’oyani topish (6 soat) 3. Matndagi sabab-oqibat bog’liqliklarini aniqlash (6 soat) 4. Kontekst bo’yicha so’z va iboralarni tushunish (6 soat) 5. Badiiy va ilmiy matnlarni solishtirish (6 soat) 6. O’qilgan matn asosida qisqa annotatsiya yozish (6 soat) 7. Matn bo’yicha tanqidiy fikr bildirish (6 soat) 8. Matndan kelib chiqib, muammo va yechimlarni aniqlash (6 soat) 9. O’qilgan matndagi fakt va fikrlarni ajratish (6 soat) 10. Matn asosida infografika yoki diagramma yaratish (6 soat)

<ol style="list-style-type: none"> 11. O’qilgan matndan asoslangan debat mavzusi ishlab chiqish (6 soat) 12. Matndagi muallif pozitsiyasini aniqlash va unga nisbatan munosabat bildirish (6 soat) <p>Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar o’quv dasturida tavsiya etilgan qo’shimcha adabiyotlarni o’qish, o’zlashtirish, ularni tahlil qilish, berilgan mavzular bo’yicha portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3. V. Ta’lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Fanni o’zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • turk tilini xalqaro til bilish darajasiga ko’ra (CEFR) kamida B2+ darajada o’zlashtirishi; • shaxsiy qiziqishlari, kasbiy yo’nalishi va ijtimoiy-madaniy mavzulardagi so’zlarning ma’nosini bilishi va ularni muloqotda to’g’ri qo’llay olish; • ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy mavzularda qo’llaniladigan so’zlarning talaffuz qoidalarini mukammal o’zlashtirishi va muloqot jarayonida ishlata olish ko’nikmalarini egallashi; • turli kontekstlarda so’z va iboralarning qo’llanilishini o’rganishda manbalardan (lug’atlar, so’zlar moslashuvi) unumli foydalana olish; • ibora hamda og’zaki nutqda qo’llaniladigan so’zlarning ko’chma va to’g’ri ma’nosini bilish va to’g’ri qo’llash; <p>so’zlarni kontekstga mos uslubda tanlay olish hamda ulardan og’zaki va yozma muloqotda erkin foydalanish malakasiga ega bo’lishi lozim.</p>
<p>4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg’ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruh, mikroguruh bo’lib ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo’lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
<p>5. VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:</p> <p>O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o’quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to’g’risida Nizom”ga ko’ra fanga ajratilgan kredit beriladi.</p> <p>Talabalarning bilimni baholash O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug’i bilan</p>